

## RUS MAKTABLARIDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA NAVOIY RUBOIYLARINI O'RGATISH VA ULARNI TAHLIL QILISH

**Qosimova Sevara Akbarovna**

*Toshkent shaxar Olmazor tumani*

*233-maktab o'zbek tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalaniq qolmasdan, balki rus maktablarida ruboiylarini o'quvchilarga o'rgatish.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiyalash, ruboiylar, tajriba, soxta birikma, shoir poetikasi, she'riyat, badiiy san'at.*

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishtga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Oila qasri, asosan, ota-ona, er-xotin va farzandlardan iborat bo'ladi. Ularning o'rtalaridagi munosabatlarga ham alohida e'tibor bilan yondashiladi. Ayniqsa, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi aloqalar juda muhim bo'lib, o'g'il-qizlarning o'zaro ota-onalari zimmasida muayyan haqlari bo'lgani kabi ota-onaning ham farzandlari zimmasida bir muncha haqlari borki, ularni tez-tez eslab hayotda dastur qilib olishimiz bizlar uchun yorug'lik, ezgulik keltiradi. Shu ma'noda hayotda yorug' kunlarda yashashni orzu qilgan har bir farzand Navoiy bobomizning quyidagi baytlariga goho-goho nazar tashlasin.

Boshni fido ayla ato qoshig'a!  
Jismni qil sadqa ano boshig'a!  
Tunu-kununga aylagali nur fosh!  
Birisin oy ayla, birisin quyosh!

Haqiqatan ham, ota-ona o'z farzandlarini boqib, voyaga yetkazar ekan, ularga turmush kechirishning yo'l-yo'riqlarini, kasb-hunarlarini o'rgatadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degandek, farzandlar ham ota-ona bag'rida o'sib-ulg'ayar ekanlar, ularning yurish-turishidan, gap-so'zidan, hatti-harakatidan, kasbu-koridan ibrat olib, tajriba va hunar orttirib, "ko'zlari pishib" boradi.

За жизнь отца -своей пожертвовать будь рад  
И голову сложить за материнский взгляд.  
Ты солнцем и луной родителей зови —  
И будешь озарен сияньем их любви.

Rus maktablarida o'zbek tili va adabiyotini o'rgatishda buyuk so'z mutafakkiri Alisher Navoiyini ruboiylarini o'quvchilarga o'rgatish ularga o'zbek tilida emas aslida rus tilida tushuntirish osonroq. Navoiy ruboiylarida qo'llangan badiiy san'atlar palitrasini rus tilida bor rangida qayta yaratish mushkul. Ammo shoir qo'llagan so'z va iboralarning tarjima tilida o'qishli va jarangdor ekvivalentlarini topib o'g'irilishida tarjimonlar mas'uldirlar. Zero, asliyatdagi purma'no so'z tarjima tilida jo'n, soxta birikma ko'rinishini olishi xech gap emas.

Bu kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun Navoiy asarlaridagi so‘zlarning ikki tillik izohli lug‘atlarini yaratish lozim ko‘rinadi.

I love you more than my soul, oh, my dear,  
I love you more than all numbers, oh, my dear,  
Loving anything can not be more than that,  
I love you much more than that, oh, my dear.

Ruboiyning inglizcha jarangi ham aynan Sharqona ohangga egaki, bunday she’rlar ingliz lirikasida uchramaydi. Ammo mazkur ruboiydagi “Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz” misrasida shoir “son” deganda aynan sanoq sonlarni nazarda tutmagan balki “sanalishi mumkin bo‘lgan har qanday mavjudotdanda kuchliroq sevaman” demoqchi. Bu esa cheksizlikni anglatadi. Shu o‘rinda tarjimon son so‘zini soddagina qilib - numbers (raqamlar,sonlar) so‘zi bilan tarjima qilib jiddiy xatoga yo‘l qo‘ygan:

I love you more than all numbers, oh, my dear...

So‘zma-so‘z tarjimasi:

Men seni hamma raqamlardanda ko‘ra kuchliroq sevaman azizim...

Ingliz tilida “hamma raqamlardan ko‘ra kuchli sevmog‘” degan ibora yo‘q. Binobarin chet tilida o‘ta jo‘n chiqqan bu iborani Navoiy ham qo‘llayotgani yo‘q. Agar tarjimon “sondin” so‘zining baytdagi ma‘nosi sanab adog‘iga yetib bo‘lmas cheksizlik ekanligini tushunganida ingliz tilida bu so‘zni - infinity (cheksizlik)deb bergan bo‘lar edi.

Alisher Navoiy she‘riyatida ko‘plab badiiy san‘atlar qo‘llanilgan bo‘lib biz ulardan ayrim namunalarni keltirdik. Umuman olganda Alisher Navoiy mumtoz she‘riyatning badiiy mahorat sirlarini puxta o‘rgangan buyuk shoir edi. Shu sababli uning she‘riyatida turfa xil badiiy san‘atlar uchraydiki, ularni kengroq tadqiq qilish orqali shoir poetikasiga oid muayyan xulosalarga kelish mumkin. Navoiy ruboiylarida qo‘llangan badiiy san‘atlar palitrasini chet tilida bor rangida qayta yaratish mushkul. Ammo shoir qo‘llagan so‘z va iboralarning tarjima tilida o‘qishli va jarangdor ekvivalentlarini topib o‘g‘irilishida tarjimonlar mas‘uldirlar. Zero, asliyatdagi purma‘no so‘z tarjima tilida jo‘n, soxta birikma ko‘rinishini olishi xech gap emas. Bu kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun Navoiy asarlaridagi so‘zlarning ikki tillik izohli lug‘atlarini yaratish lozim ko‘rinadi.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. 11-sinf O‘zbek tili maktab darsligi
2. X.S. Suleymanov "Navoiy" Hikmatli so‘zlar
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylari-tahlili.html>
4. <https://hozir.org/marosim-folklori.html?page=5>